

NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR SIFATINI OSHIRISHDA HUQUQIY EKSPERTIZANING AHAMIYATI

Xolliyeva Durdona Dilmurod qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti “Davlat boshqaruvi huquqi” magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20390143>

Annotatsiya

Ushbu maqolada normativ-huquqiy hujjatlar sifatini oshirish va huquqiy nuqsonlarning oldini olishda huquqiy ekspertizaning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. O‘zbekiston Respublikasida ham normativ-huquqiy hujjatlarning sifatini oshirishga qaratilgan islohotlar yoritiladi. Shuningdek, bir nechta olimlarning huquqiy ekspertizaga oid bo‘lgan tadqiqotlari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar

Norma ijodkorligi, huquqiy ekspertiza, qonunchilik texnikasi, huquqiy nuqson (defekt), idoraviy manfaatdorlik, Smart Regulation, tartibga solish ta‘sirini baholash.

Abstract

This article analyzes the role and importance of legal expertise in improving the quality of regulatory legal documents and preventing legal defects. It also highlights the reforms aimed at improving the quality of regulatory legal documents in the Republic of Uzbekistan. It also discusses the research of several scholars on legal expertise.

Keywords

Norm creativity, legal expertise, legislative techniques, legal defect, departmental interest, Smart Regulation, regulatory impact assessment.

Аннотация

В статье анализируется роль и значение правовой экспертизы в повышении качества нормативных правовых актов и предупреждении правовых дефектов. Описываются реформы, направленные на повышение качества нормативных правовых актов в Республике Узбекистан. В статье также рассматриваются исследования нескольких ученых, касающиеся правовой экспертизы.

Ключевые слова

Нормотворчество, правовая экспертиза, законодательная техника, правовой дефект, ведомственная заинтересованность, смарт-регулирование, оценка регулирующего воздействия.

Bugungi kunda huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishda normativ-huquqiy hujjatlarning sifati muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har qanday qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy vosita hisoblanadi. Shu sababli normativ-huquqiy hujjatlarning mukammal, aniq va amaliyotga mos bo‘lishi davlat boshqaruvi samaradorligini oshiradi. Normativ-huquqiy hujjatlar sifatini ta‘minlashda huquqiy ekspertiza alohida o‘rin tutadi. Huquqiy ekspertiza – bu normativ-huquqiy hujjat loyihalarining amaldagi qonunchilikka, yuridik texnika qoidalariga hamda inson huquq va erkinliklariga muvofiqligini tekshirish jarayonidir.

Hozirgi kunda huquqiy islohotlarning muvaffaqiyati qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining naqadar pishiq va hayotiyeligiga bog‘liq. Huquqiy ekspertiza –bu loyihaning Konstitutsiyaga,

amaldagi qonunlarga, qonunchilik texnikasi qoidalariga muvofiqligini hamda unda korrupsiyaviy omillar yo'qligini tekshiruvchi asosiy filtr hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı huquqiy islohotlar sharoitida normativ-huquqiy hujjatlar sifatini oshirish masalasi o'ta dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan boshlangan huquqiy islohot doirasida qonunchilikni takomillashtirish, ortiqcha va ziddiyatli normalarni bartaraf etish hamda huquqiy ekspertizani yanada mustahkamlash bo'yicha muhim qarorlar qabul qilinmoqda.

Huquqiy ekspertiza deganda normativ-huquqiy hujjatning Konstitutsiyaga, qonunlarga va xalqaro huquq me'yorlariga muvofiqligini, ichki izchilligini, tushunarlıligi va amalda qo'llanilish imkoniyatini aniqlashga qaratilgan maxsus tekshiruv tushuniladi. Bu jarayon nafaqat qonunchilik texnikasiga rioya etilganligini, balki normalar mazmunining ijtimoiy ehtiyojlarga javob berishini ham baholaydi. Huquqiy ekspertizani bir nechta turlarga bo'lsak bo'ladi: huquqiy-texnik ekspertiza, antikorrupsion ekspertiza, ijtimoiy ekspertiza, iqtisodiy ekspertiza, ekologik ekspertiza va huquqiy monitoring. Har bir ekspertiza turiga alohida ta'rif beradigan bo'lsak, huquqiy-texnik ekspertiza – hujjatning qonunchilik texnikasi talablariga muvofiqligini, terminologiyaning to'g'riligini, normalar strukturasiining mantiqiyiligini tekshiradi. Antikorrupsion ekspertiza esa normativ-huquqiy hujjatda korrupsiyaga yo'l ochishi mumkin bo'lgan normalar, noaniqliklar va suiiste'molga imkon beruvchi holatlarga qarshi yo'naltirilgan tahlil. Ijtimoiy ekspertiza deganda, qabul qilinayotgan hujjat aholining turli qatlamlariga, iqtisodiy faollikka va fuqarolik jamiyatiga ta'sirini baholaydi. Iqtisodiy ekspertizaga ta'rif beradigan bo'lsak, normalarning moliyaviy-iqtisodiy oqibatlarini, byudjetga ta'sirini va biznes muhitiga ta'sirini aniqlaydi. Shuningdek, ekologik ekspertiza – normativ-huquqiy hujjatlarning atrof-muhit muhofazasi talablariga muvofiqligini tekshiradi. Amalda bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni doimiy kuzatish va ularning ijrosini baholash esa huquqiy monitoring hisoblanadi. Har bir tur o'ziga xos metodologiya va tekshiruv mezonlariga ega bo'lib, birgalikda qo'llanilganda normativ-huquqiy hujjatning har tomonlama kompleks baholanishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasida ham normativ-huquqiy hujjatlarning sifatini oshirishga qaratilgan bir qancha islohotlar amalga oshirilmogda. O'zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida”gi Qonuni aynan normativ-huquqiy hujjatlarga bag'ishlangan hisoblanadi. Qonunning 4-bobi “Normativ-huquqiy hujjat loyihasini ekspertizadan o'tkazish va kelishish” deb nomlanadi¹. Ushbu bobga ko'ra, normativ-huquqiy hujjat loyihasi huquqiy va korrupsiyaga qarshi ekspertizalardan o'tkazilishi shart. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlashda bevosita ishtirok etmagan tashkilotlar va (yoki) shaxslar ekspertlar sifatida jalb qilinadi. Ekspertizadan o'tkazish uchun olimlar va mutaxassislar, shu jumladan boshqa davlatlar hamda xalqaro tashkilotlardan olimlar va mutaxassislar jalb etilishi mumkin. Yana bir narsani aytib o'tish joizki, ekspertlar normativ-huquqiy hujjat loyihasiga baho berishda mustaqil hisoblanishadi va ekspertiza o'tkazish topshirig'ini bergan organning nuqtai nazari bilan bog'liq bo'lmaydi. Qonunda normativ-huquqiy hujjat loyihasining huquqiy ekspertizasi haqida ham so'z yuritiladi. Bu 26-moddada berilgan. Unga ko'ra, huquqiy ekspertiza jarayonida normativ-huquqiy hujjat loyihasining O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, unga nisbatan yuqoriroq yuridik kuchga ega bo'lgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirishning talablarga muvofiqligi, shu jumladan normativ-huquqiy hujjat loyihasida havola qiluvchi normalar qo'llanilishining asoslıligi hamda maqsadga muvofiqligi

¹ O'zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida”gi Qonuni. 20.04.2021-yildagi O'RQ-682-son. <https://lex.uz/docs/-5378966>

tekshiriladi. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining huquqiy ekspertizasi ishlab chiquvchining yoki normativ-huquqiy hujjat qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organning yuridik xizmati, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, uning hududiy bo'linmalari va boshqa tashkilotlar tomonidan qonunchilikka muvofiq o'tkaziladi.

Har qanday demokratik davlatda huquqiy islohotlarning muvaffaqiyati qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning sifati hamda hayotiyliigi bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasida mustahkamlangan qonun ustuvorligi prinsipini ta'minlash qonun loyihalarini tayyorlash bosqichidayoq ulardagi ziddiyatlar, bo'shliqlar va korrupsiyaviy omillarni bartaraf etishni talab qiladi. Akademik X.T. Odilqoriyev ta'kidlaganidek, qonun hujjati jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni aniq tartibga solishi va amaliyotda kolliziyalarni keltirib chiqarmasligi lozim. Bu borada huquqiy ekspertiza qonun ijodkorligi zanjirining eng muhim filtri – o'ziga xos “sifat nazorati” vazifasini bajaradi. 2021-yilda yangi tahrirda qabul qilingan “Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida”gi Qonun huquqiy ekspertiza institutining huquqiy poydevorini yanada mustahkamladi. Biroq, bugungi raqamli transformatsiya davrida ekspertiza mexanizmlarini yanada takomillashtirish dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Huquqiy ekspertiza va qonunchilik texnikasi muammolari ham milliy, ham xorijiy huquqshunoslikda keng o'rganilgan. Rossiyalik taniqli huquqshunos olim Yu.A. Tikhomirov o'zining fundamental ishlarida huquqiy ekspertizani nafaqat matn tahlili, balki bo'lajak qonunning ijtimoiy-huquqiy oqibatlarini modellashtirish usuli sifatida baholaydi. G'arb huquqiy makonida, xususan R. Baldwin va M. Cave tadqiqotlarida huquqiy ekspertiza an'anaviy qolipdan chiqib, “Smart Regulation” (Aqlli tartibga solish) konsepsiyasi bilan uyg'unlashgan. Bu yondashuvda qonun sifati uning hajmi yoki soni bilan emas, balki fuqarolar va biznesga keltiradigan iqtisodiy-huquqiy foydasi orqali o'lchanadi.

Huquqiy ekspertiza – normativ-huquqiy hujjat loyihasining Konstitutsiyaga, amaldagi qonunlarga, qonunchilik texnikasi qoidalariga mosligini aniqlash, shuningdek, undagi korrupsiyaga sharoit yaratuvchi va boshqa huquqiy kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan professional faoliyatdir.

Bugungi kunda O'zbekistonda huquqiy ekspertiza bir qancha fundamental muammolarni hal etishga xizmat qilmoqda. Ko'plab normativ-huquqiy hujjat loyihalari vazirlik va idoralar tomonidan ishlab chiqiladi. Tabiiyki, loyiha mualliflari ko'p hollarda o'z idoralarining vakolatlarini kengaytirishga va nazorat mexanizmlarini o'zlariga moslashtirishga harakat qiladi. Adliya vazirligi tomonidan o'tkaziladigan mustaqil huquqiy ekspertiza ushbu idoraviy manfaatlarni jilovlab, hujjatning umumdavlat va xalq manfaatlariga xizmat qilishini ta'minlaydi. Sifatsiz normativ hujjat – korrupsiyaning birinchi manbaidir. Agar normada amaldorga “ruxsat berishi mumkin” yoki “rad etishga haqli” kabi mutlaq va noaniq vakolatlar berilsa, bu huquqni qo'llashda korrupsiyani keltirib chiqaradi. Huquqiy ekspertiza jarayonida bunday yashirin, ikki va kutilmagan ma'nolarni anglatuvchi normalar qat'iy kesib tashlanadi. Shuningdek, yiliga minglab normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinadigan sharoitda yangi qonun loyihasi amaldagi beshta boshqa hujjatga zid kelib qolishi xavfi yuqori. Ekspertiza loyihaning amaldagi tizimga “metabolizm” bo'lishini, ya'ni tizimli integratsiyalashuvini ta'minlaydi. Hozirgi kunda O'zbekistonda tartibga solish ta'sirini baholash tizimi joriy etilgan bo'lib, u huquqiy ekspertizaning iqtisodiy jihatini to'ldiradi. Huquqiy ekspertiza normativ-huquqiy hujjatlar sifatini ta'minlashda shunchaki rasmiy bosqich emas, balki qonun ustuvorligini kafolatlovchi strategik institutdir.

Xulosa qilib aytganda, huquqiy ekspertiza mexanizmlarining takomillashtirilishi O'zbekistonda qonunlar sonining emas, balki ularning sifat va hayotiylik darajasi oshishiga, bu esa o'z navbatida fuqarolarning huquqiy tizimga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuni. 20.04.2021-yildagi O‘RQ-682-son. <https://lex.uz/docs/-5378966>
3. Odilqoriyev X.T. Qonunchilik texnikasi: Darslik. – T.: TDYU, 2017. – 280 b.
4. Tikhomirov Yu.A. Yuridicheskaya ekspertiza zakonoproektov: praktika i metodologiya. – M.: Statut, 2013.
5. Baldwin R., Cave M., Lodge M. Understanding Regulation: Theory, Strategy, and Practice. – Oxford University Press, 2012.